
Ehtiyojmand oilalar hamda yakka-yolg'izlarga yuzga yaqin elektr isitgichlar topshirildi

Avval xabar berganimizdek, shahrimizdagi mas'ullar tomonidan xonadonlarda kuz-qish mavsumini o'rganish maqsadida xatlov o'tkazilmoqda. Xatlov natijasida xonadonlarda aniqlangan muammolar tezkorlik bilan bartaraf etilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoji bo'lgan oilalarga shahar hokimligi tomonidan zaruriy mahsulotlar berilmoqda. Shuningdek, xatlovda ehtiyojmand oilalar hamda yakka-yolg'iz yashayotgan fuqarolarning elektr isitgichlarga ehtiyoji borligi aniqlandi. O'tgan kunlar davomida ehtiyojmand oilalar va yakka-yolg'izlarga shahar hokimligi tomonidan ajratilgan yuzga yaqin elektr isitgichlar hokimning oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova tomonidan yetkazib berildi.

Oila vakillari hamda yakka-yolg'iz yashayotgan fuqarolar bunday ko'rsatilgan e'tibor va g'amxo'rlikdan mamnun ekanliklarini bildirishdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-01-23 09:27:00